

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/10.12.2019.I.16.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

TURAYEV ALIJON AKMAL O‘G‘LI

SOLIQ TO‘LOVCHILAR FAOLIYATINI SOLIQ MEXANIZMI
VOSITASIDA TARTIBGA SOLISHNI TAKOMILLASHTIRISH

08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit

iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI

TOSHKENT – 2024

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавления автореферата диссертации доктора философии
(PhD) по экономическим наукам**

**Content of dissertation abstract of doctor of philosophy (Doctor of
Philosophy) on economic sciences**

Turayev Alijon Akmal o‘g‘li

Soliq to‘lovchilar faoliyatini soliq mexanizmi vositasida tartibga solishni takomillashtirish.....3

Тураев Алижон Акмал угли

Совершенствование регулирования деятельности налогоплательщиков посредством налогового механизма.....25

Turaev Alijon Akmal ugli

Improving regulation of taxpayers using the tax mechanism.....49

E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati

Список опубликованных работ

List of published works.....54

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/10.12.2019.I.16.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

TURAYEV ALIJON AKMAL O‘G‘LI

SOLIQ TO‘LOVCHILAR FAOLIYATINI SOLIQ MEXANIZMI
VOSITASIDA TARTIBGA SOLISHNI TAKOMILLASHTIRISH

08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit

iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI

TOSHKENT – 2024

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida B2022.4.PhD/Iqt2590 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Toshkent davlat iqtisodiyot universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.tsue.uz) va «ZiyoNet» axborot-ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Ibragimov Boburshoh Boxodir o'g'li
iqtisodiyot fanlari doktori (DSc)

Rasmiy opponentlar:

Tashmuradova Buvsara Egamovna
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Gadoyev Erkin Fayziyevich
iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor

Yetakchi tashkilot:

Samarqand davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/10.12.2019.I.16.01 raqamli Ilmiy kengashning 2024 yil «14» 11 soat 10⁰⁰ dagi majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: 100003, Toshkent shahri, Islom Karimov ko'chasi, 49-uy. Tel.: (99871) 239-28-72; faks : (99871) 239-43-51. ye-mail: info@tsue.uz).

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat iqtisodiyot universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (1521 raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 100003, Toshkent shahri, Islom Karimov ko'chasi, 49-uy. Tel.: (99871) 239-28-72; faks: (99871) 239-43-51. ye-mail: info@tsue.uz).

Dissertatsiya avtoreferati 2024 yil «28» 10 kuni tarqatildi.

(2024 yil «28» 10 dagi 71- raqamli reestr bayonnomasi).



S.U.Mexmonov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, i.f.d., professor

U.V.Gafurov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash kotibi, i.f.d., professor

S.K.Xudoyqulov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, i.f.d., professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda global moliyaviy beqarorlikning kuchayishi jarayonida budjet tushumlari barqarorligini ta'minlash soliq to'lovchilar faoliyatini soliq mexanizmi vositasida tartibga solishni takomillashtirishning ahamiyatini oshirmoqda. Olimlar, siyosatchilar va biznes rahbarlari soliq ma'muriyatchiligini takomillashtirishda "soliq munosabatlarining samaradorligi va natijaviyligini oshirish vositasi sifatida, turli toifadagi soliqqa tortish tartibi va soliq solinadigan bazani aniqlashdagi tafovutlarni olib tashlashni taklif qiladi"¹. Jahon banking tavsiyasida "soliq bazasini kengaytirish va chuqurlashtirish orqali ichki resurslarni safarbar qilish mamlakatning tashqi moliyalashtirishga (masalan, xalqaro yordam, rivojlanish yordami va chetdan qarz olish) qaramligini kamaytiradi, shu bilan birga hukumatning javobgarligi, tezkorligi va institutsional salohiyatini yanada kengroq yaxshilashga yordam beradi"², deb ta'kidlangan. Bu esa soliq to'lovchilar faoliyatini soliq mexanizmi vositasida tartibga solishni takomillashtirish borasida ilmiy tadqiqotlarni olib borishni talab etadi.

Xalqaro amaliyotda, soliq to'lovchilar faoliyatini soliq mexanizmi vositasida tartibga solishni takomillashtirishga qaratilgan ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Iqtisodiyotni soliq mexanizmi orqali tartibga solishda soliq maslahati xizmatlari ko'rsatish tizimini, soliq auditi va kameral soliq tekshiruvlari natijalari bo'yicha qo'shimcha hisoblangan soliqlar summalarini va moliyaviy sanksiyalarni undirish mexanizmlarini takomillashtirish, soliq hisobotlarini tuzish va taqdim etish tizimini tahlil qilishning uslubiy asoslarini ishlab chiqish, soliq yuki darajasini aniqlash amaliyoti orqali soliq mexanizmi samaradorligini baholash, elektron soliq tizimiga bo'lgan munosabat va soliq qonunchiligiga rioya qilish o'rtasidagi munosabatlarda elektron soliq tizimini joriy qilish masalalari bu boradagi ilmiy tadqiqotlarning ustuvor yo'nalishlaridan hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasida soliq to'lovchilar faoliyatini soliq mexanizmi vositasida tartibga solishni takomillashtirish bugungi kunning dolzarb masalasi bo'lib qolmoqda. Tahlillarga ko'ra soliq ma'muriyatchiligi raqamlashtirilishi oqibatida "Mobil to'lov provayderlari, elektron kassa apparatlari, onlayn bozorlar va boshqa raqamli manbalardan olingan global ma'lumotlar hajmi 2020-yildan 2024-yilgacha qariyb uch barobar oshganligini ko'rishimiz mumkin"³. Xo'jalik yurituvchi subyektlar moliyaviy-xo'jalik faoliyatini soliqlar orqali tartibga solishning natijaviyligini oshirish soliq solishning xorij tajribasini o'rganish va uning ijobiy tomonlarini mamlakatimiz amaliyotida qo'llashga yo'naltirilgan ilmiy tadqiqotlarning amalga oshirilishi maqsadga muvofiq.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 8-apreldagi PF-101-son "Tadbirkorlik muhitini yaxshilash va xususiy sektorni rivojlantirish orqali barqaror iqtisodiy o'sish uchun shart-sharoitlar yaratish borasidagi navbatdagi islohotlar

¹ Jorgenson, D. W., & Yun, K.-Y. (2013). Taxation, efficiency and economic growth. In P. Dixon & D. Jorgenson (Eds.), *Handbook of Computable General Equilibrium Modeling* (Vol. 1) (pp. 659-741). Amsterdam: Elsevier.

² Innovations in Tax Compliance, February 17, 2022. - <https://www.worldbank.org/en/topic/macroeconomics/brief/innovations-in-tax-compliance>

³ <https://blogs.worldbank.org/voices/why-tax-administrations-are-embracing-digital-transformation>

to'g'risida", 2022-yil 30-dekabrda PF-287-son "Respublika hududlarini toifalarga ajratish va tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlashning tabaqalashtirilgan tizimini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida", 2022-yil 28-iyundagi PF-162-son "Soliq ma'muriyatchiligini isloh qilish davrida biznes uchun qulay shart-sharoitlar yaratish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmonlari, 2023-yil 4-sentyabrda PQ-292 son "O'zbekiston Respublikasi Prezidentining tadbirkorlar bilan 2023-yildagi ochiq muloqotida belgilangan vazifalarni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2023-yil 29-dekabrda PQ-422-son "O'zbekiston Respublikasining «2024-yil uchun O'zbekiston Respublikasining davlat budjeti to'g'risida»gi qonuni ijrosini ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorlari hamda mazkur sohaga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishi ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. «Demokratik va huquqiy jamiyatni ma'naviy-axloqiy hamda madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish» ustuvor yo'nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Soliq to'lovchilar faoliyatini soliq mexanizmi vositasida tartibga solishni takomillashtirishning nazariy-uslubiy masalalari xorijlik iqtisodchi olimlar K.James, Julia Kagan, L.I.Goncharenko, I.A.Mayburov, A.D.Danilov, O.V.Kachur, A.A.Abakulova, L.V.Barulin, M.M.Shadurskaya, V.A.Krasnitskiy, N.Z.Zotikov, Ye.V. Smirnova va boshqalarni kiritish mumkin⁴.

O'zbekistonlik iqtisodchi olimlaridan E.F.Gadoyev, Sh.A.Toshmatov, T.S.Malikov, N.H.Xaydarov, U.V.Gafurov, B.E.Tashmuradova, B.I.Isroilov, N.R.Kuziyeva, N.B.Ashurova, J.J.Urmonov, I.M.Niyazmetov, S.K.Xudoyqulov, B.B.Ibragimov va boshqalarning ilmiy ishlarida soliq to'lovchilar faoliyatini soliq mexanizmi vositasida tartibga solishning ayrim jihatlar o'rganilgan⁵.

⁴ James K. "Exploring the Origin and Global Rise of VAT," Manash University, Melbourne. 2011. Julia Kagan. Indirect Tax: Definition, Meaning, and Common Examples. Updated April 04, 2022. <https://www.investopedia.com/terms/i/indirecttax.asp>. Goncharenko, L. I. Налоги и налоговая система Российской Федерации: учебник и практикум для академического бакалавриата / отв. ред. Л. И. Гончаренко. — 2-е изд., перераб. и доп. — М.: Издательство Юрайт, 2019. — 524 с. Майбуров И. А. Налоги и налогообложение: учебник для студентов вузов, обучающихся по направлениям «Экономика» и «Менеджмент», специальностям «Экономическая безопасность», «Таможенное дело» / И. А. Майбуров [и др.]; под ред. И. А. Майбура. — 7-е изд., перераб. и доп. — М.: ЮНИТИ-ДАНА, 2018. — 503 с. Абакулова А. А. Шадурская М. М., Налоговое администрирование в условиях цифровизации экономики. Финансы и кредит. 2022. В.А.Красницкий Налоговое администрирование. <https://wiseeconomist.ru/poleznoe/29668-nalogovoe-administrirovaniye>. 25.02.2023. Зотиков Н.З. Налоговое администрирование, его влияние на налоговую нагрузку. Вестник Сургутского государственного университета. 2022;(1 (35)):26-37. <https://doi.org/10.34822/2312-3419-2022-1-26-37>. Смирнова Е.В. Совершенствование налогового администрирования НДС в интересах государства и налогоплательщиков. ЖУРНАЛ. Вестник Астраханского государственного технического университета. Серия: Экономика. №1 2018.

⁵ Gadoyev E.F. va b. Bilvosita soliqlar: qo'shilgan qiymat solig'i, aksiz solig'i. Toshkent: «NORMA», 2011. 327 b.; Toshmatov Sh.A. Qo'shilgan qiymat solig'i. Monografiya. Toshkent: «Iqtisodiyot va huquq dunyosi», 2004. -160 b.; Malikov T.S., Haydarov N.X. Moliya: umumdavlat moliyasi. O'quv qo'llanma. – T.: Iqtisod-moliya, 2009. - 556 b.; Gafurov U.V. Kichik biznesni davlat tomonidan tartibga solishning iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish. I.f.d. diss. avtoref. – T., 2017.; Tashmuradova B.E. Qo'shilgan qiymat solig'i bazasini aniqlash va hisoblash xususiyatlari. "Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" ilmiy elektron jurnali. № 3, may-iyun, 2021-yil.; B.I.Исроилов. Соликларнинг молиявий ҳисоби ва таҳлилининг методологик асослари. Монография.2006.;

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti ilmiy tadqiqot ishlari rejaloriga muvofiq ilmiy loyiha doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi soliq to'lovchilar faoliyatini soliq mexanizmi vositasida tartibga solishni takomillashtirishga qaratilgan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalarni ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

iqtisodiyotni soliq mexanizmi orqali tartibga solishning nazariy-huquqiy asoslarini tahlil qilish;

soliq maslahati xizmatlari ko'rsatish tizimi amaliyotini tahlil qilish va soliq xizmatini ko'rsatish samaradorligini oshirish va xizmatlar tarkibini takomillashtirish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqish;

soliq majburiyatlari ijrosi samaradorligini tahlil qilish va uni takomillashtirish yo'llari bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqish;

soliq auditi va kameral soliq tekshiruvlari natijalari bo'yicha qo'shimcha hisoblangan soliqlar summalarini va moliyaviy sanksiyalarni undirish mexanizmlarini takomillashtirishga oid takliflar kiritish;

soliq to'lovchilar faoliyatini soliq mexanizmi orqali tartibga solish masalalarini o'rganish va uni takomillashtirishga oid takliflar kiritish;

soliq hisobotlarini tuzish va taqdim etish tizimini tahlil qilish asosida hisobotlarni soliq organlari tomonidan shakllantirish tartibini joriy etish bo'yicha takliflar ishlab chiqish;

soliq mexanizmi samaradorligini baholash maqsadida soliq yuki darajasini aniqlash amaliyotini tahlil qilish va uni aniqlash tartibini takomillashtirish to'g'risida tavsiyalar ishlab chiqish;

soliq to'lovchilar faoliyatini soliq mexanizmi vositasida tartibga solishning xorij tajribasini o'rganish.

Tadqiqotning obyekti sifatida O'zbekiston Respublikasidagi soliq to'lovchi korxonalar faoliyati olingan.

Tadqiqotning predmeti bo'lib soliq to'lovchilar faoliyatini soliq mexanizmi vositasida tartibga solishni takomillashtirish bilan bog'liq iqtisodiy munosabatlar hisoblanadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqotda dialektik yondashuv, tahlil va sintez, kuzatish, taqqoslash, statistik, qiyosiy tahlil, monografik kuzatuv va boshqa usullardan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

Кузиева Н.Р. Совершенствование законодательных основ создания деятельности и налоговых режимов предприятий экспортёров в свободных экономических зонах Узбекистана. Ashurova N.B. Barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlashda soliqqa tortish mexanizmini takomillashtirish. i.f.d. (DS) Dissertatsiyasi. T: 2018 yil; Urmonov J.J. Tadbirkorlik subyektlarini soliqqa tortish mexanizmini takomillashtirish masalalari: Monografiya/ T.: Iqtisod-Moliya, 2018 y. 240 b.; Niyazmetov I.M. Soliq yukini optimallashtirish: nazariya, uslubiyat va amaliyot. Monografiya. – T.: Moliya, 2016. 192 b.; Xudoyqulov S.K. Soliq tushumlarini prognoz qilish metodologiyasini takomillashtirish. i.f.d. diss. avtoreferati. T., 2019. 77 b., Ibragimov B.B. Soliq ma'muriyatchiligi: muammo va yechimlar.T.:”Noshirlik yog'dusi”, 2022. 226 b.

soliq xavfi darajasi tahlilida xarajatlar va daromadlar miqdori, soliq majburiyatlarining o'z vaqtida bajarilishi, sof foydaning tovarlar va xizmatlar realizatsiya qilishda olingan daromad (aksiz va qo'shilgan qiymat solig'isiz) hisoblangan miqdori hamda xarajatlarga nisbati kabi rentabellik ko'rsatkichlarini xavf mezonlari tarkibiga kiritish orqali soliq xavfini aniqlash imkoniyatini oshirish taklifi asoslangan;

soliq maslahati xizmatlari tarkibiga soliqqa oid tavakkalchiliklarni tahlil qilish hamda baholash, mijozga soliq imtiyozlarini qo'llashga doir tavsiyalar berish xizmatlarini kiritish orqali soliq xizmatlari ko'rsatish hajmini oshirish taklifi asoslangan;

soliq auditi va kameral soliq tekshiruvlari natijalarida budjetga qo'shimcha hisoblangan soliqlarni olti oy muddatda bo'lib-bo'lib to'lash imkoniyatini berish orqali soliq to'lovchilar majburiyatlari ijrosini moliyaviy faoliyatga salbiy ta'sirini kamaytirish asoslangan;

soliq nazorati tadbirlari davomida soliq organlari tomonidan shakllantirilgan soliq hisoboti bilan soliq organidagi yangilangan ma'lumotlar o'rtasida tafovut, xatolar aniqlangan holatlarda soliq to'lovchilarga soliq organlariga aniqlashtirilgan soliq hisoboti yoki aniqlangan tafovutlar bo'yicha izoh taqdim etish majburiyatini yuklash orqali soliq organlarining soliq to'lovchilar bilan o'zaro hamkorligi va ishonchini oshirish hamda soliq huquqbuzarliklar darajasini kamaytirish asoslangan.

Tadqiqotning amaliy natijasi quyidagilardan iborat:

soliq majburiyati atamasining takomillashtirilgan ta'rifi tavsiya qilingan;

soliq to'lovchilarning tanloviga ko'ra qo'shilgan qiymat solig'i, aylanmadan olinadigan soliq, yuridik shaxslardan olinadigan mol-mulk va yer soliqlari bo'yicha soliq hisobotlarini soliq organlari tomonidan avtomatik tarzda shakllantirish tartibini joriy etish asoslangan;

soliq mexanizmi samaradorligini baholash tizimini takomillashtirish maqsadida soliq yuki ko'rsatkichini iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha aniqlash yo'llari taklif etilgan;

soliq maslahati xizmatini soliq mexanizmining tartibga solish elementi tarkibiga kiritish taklifi asoslangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot ishini tayyorlashda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Soliq qo'mitasi, O'zbekiston Respublikasi Hisob palatasi, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi statistika agentligining rasmiy ma'lumotlaridan foydalanilganligi, ishda qo'llanilgan yondoshuv va usullarning maqsadga muvofiqligi va ilmiy asoslanganligi, keltirilgan xulosa, taklif va tavsiyalarning Soliq qo'mitasi tomonidan amaliyotga joriy qilinganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati soliq to'lovchilar faoliyatini soliq mexanizmi vositasida tartibga solishni takomillashtirishga oid nazariy-metodologik va soliq tizimiga oid maxsus ilmiy tadqiqotlarni amalga oshirishda foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati ishlab chiqilgan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalardan respublikada xo'jalik yurituvchi subyektlar tomonidan soliq

munosabatlari va soliq qonunchiligiga to'liq rioya etishni takomillashtirish bo'yicha ishlab chiqiladigan kompleks chora-tadbirlar majmuini ishlab chiqishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Soliq to'lovchilar faoliyatini soliq mexanizmi vositasida tartibga solishni takomillashtirishga qaratilgan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar asosida:

soliq xavfi darajasi tahlilida xarajatlar va daromadlar miqdori, soliq majburiyatlarining o'z vaqtida bajarilishi, sof foydaning tovarlar va xizmatlar realizatsiya qilishda olingan daromad (aksiz va qo'shilgan qiymat solig'isiz) hisoblangan miqdori hamda xarajatlarga nisbati kabi rentabellik ko'rsatkichlarini xavf mezonlari tarkibiga kiritish orqali soliq xavfini aniqlash imkoniyatini oshirish taklifi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 7-yanvardagi 1-sonli qarori bilan tasdiqlangan "Soliq xavfini boshqarish, soliq xavfi mavjud soliq to'lovchilarni (soliq agentlarini) aniqlash va ularni soliq xavfi darajasi bo'yicha toifalash tartibi to'g'risida Nizom"da o'z aksini topgan (O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Soliq qo'mitasining 2024-yil 18-yanvardagi 06-05478-son dalolatnomasi). Mazkur taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida soliq xavfini aniqlash imkonini o'rtacha 2 foizga ortishiga erishilgan;

soliq maslahati xizmatlari tarkibiga soliqqa oid tavakkalchiliklarni tahlil qilish hamda baholash, mijozga soliq imtiyozlarini qo'llashga doir tavsiyalar berish xizmatlarini kiritish orqali soliq xizmatlari ko'rsatish hajmini oshirish taklifi O'zbekiston Respublikasining 2022-yil 4-avgustda qabul qilingan "Soliq maslahatiga oid faoliyat to'g'risida"gi O'RQ-787-son qonunning 9-moddasida o'z aksini topgan (O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Soliq qo'mitasining 2024-yil 18-yanvardagi 06-05478-son dalolatnomasi). Ushbu taklifni amaliyotga joriy etilishi soliq xizmatlari ko'rsatish hajmini 7 foizga o'sishiga xizmat qilgan;

soliq auditi va kameral soliq tekshiruvlari natijalarida budjetga qo'shimcha hisoblangan soliqlarni olti oy muddatda bo'lib-bo'lib to'lash imkoniyatini berish orqali soliq to'lovchilar majburiyatlari ijrosini moliyaviy faoliyatga salbiy ta'sirini kamaytirish taklifi O'zbekiston Respublikasining 2023-yil 28-dekabrda O'RQ-891-sonli Qonuni bilan amaliyotga joriy etilgan (O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Soliq qo'mitasining 2024-yil 18-yanvardagi 06-05478-son dalolatnomasi). Mazkur taklifni amaliyotga joriy etilishi natijasida o'rtacha 1 foiz soliq to'lovchilar soliq qarzlarini bo'lib to'lash evaziga aylanma mablag'laridan samarali foydalanish imkoniga ega bo'lgan;

soliq nazorati tadbirlari davomida soliq organlari tomonidan shakllantirilgan soliq hisoboti bilan soliq organidagi yangilangan ma'lumotlar o'rtasida tafovut, xatolar aniqlangan holatlarda soliq to'lovchilarga soliq organlariga aniqlashtirilgan soliq hisoboti yoki aniqlangan tafovutlar bo'yicha izoh taqdim etish majburiyatini yuklash orqali soliq organlarining soliq to'lovchilar bilan o'zaro hamkorligi va ishonchini oshirish hamda soliq huquqbuzarliklar darajasini kamaytirish taklifi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 18-oktyabrda 548-son qarori bilan tasdiqlangan "Soliq to'lovchining tanloviga ko'ra soliq

organlari tomonidan soliq hisobotini shakllantirish tartibi to‘g‘risidagi Nizom”ning 14-bandida inobatga olingan va amaliyotga joriy etilgan (O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Soliq qo‘mitasining 2024-yil 18-yanvardagi 06-05478-son dalolatnomasi). Taklifni amaliyotga joriy etilishi natijasida soliq organlari va soliq to‘lovchilar o‘zaro hamkorligi darajasi, taraflarga bo‘lgan ishonchlilikni oshirish hamda soliq huquqbuzarliklari sonini kamaytirish imkoni yaratilgan;

Tadqiqot natijalarining aprobeiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 7 ta, jumladan 4 ta xalqaro va 3 ta respublika ilmiy-amaliy konferensiyalarida muhokama qilingan va ijobiy xulosalar olingan.

Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 17 ta ilmiy ish, shu jumladan O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiyasi komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 7 ta, shundan nufuzli xorijiy jurnallarda 1 ta ilmiy maqola chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 141 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi va asosiy vazifalari, obyekt va predmeti shakllantirilgan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga bog‘liqligi ko‘rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati yoritib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilishning sinovdan o‘tganligi, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo‘yicha ma‘lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyani «**Iqtisodiyotni soliq mexanizmi orqali tartibga solishning nazariy-huquqiy asoslari**» deb nomlangan birinchi bobida, soliq mexanizmi orqali soliq to‘lovchilar faoliyatini tartibga solishning nazariy asoslari, soliq munosabatlarini tartibga solishda soliq mexanizmidan foydalanish masalalari hamda iqtisodiyotni soliq mexanizmi orqali tartibga solishning huquqiy asoslari kabi masalalar tadqiq etilgan hamda bob yakunida mazkur masalalar bo‘yicha ilmiy xulosalar shakllantirilgan.

O‘zbekiston Respublikasi iqtisodiyotini barqaror o‘shirishni ta‘minlashda iqtisodiy siyosatning tarkibiy qismi bo‘lgan fiskal siyosatining ahamiyatini alohida e‘tirof etish lozim.


Amaldagi me‘yoriy hujjatlarga ko‘ra “Fiskal siyosat – davlat faoliyatini moliyaviy qo‘llab-quvvatlash, davlat daromadlari va xarajatlarini muayyan iqtisodiy va ijtimoiy maqsadlar uchun tartibga solishga qaratilgan chora-tadbirlar tizimini o‘z ichiga oluvchi moliyaviy siyosatning ajralmas qismi”⁶ hisoblanadi.

⁶ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-yanvardagi “Iqtisodiyotni yanada rivojlantirish va iqtisodiy siyosat samaradorligini oshirishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5614-sonli Farmoni.

Tadqiqotlarimiz natijasida ushbu atamaga “Fiskal siyosat – davlat konsolidatsiyalashgan budjeti daromadlarini shakllantirish manbalari va xarajatlar yo‘nalishlarini belgilash hamda iqtisodiyotni barqaror o‘shishni rag‘batlantirishga oid moliyaviy chora-tadbirlari tizimidir”, mazmunida ta’rif berishni maqsadga muvofiq, deb hisobladik.

Soliq mexanizmi tegishli soliq siyosatini amalga oshirish uchun soliqqa tortish tartibini belgilovchi o‘zaro bog‘liq elementlar tizimi sifatida belgilanishi mumkin. *Soliq mexanizmi elementlariga* “1) soliq axborotlari; 2) soliqlarni rejalashtirish va prognozlashtirish; 3) soliqlarni tartibga solish; 4) soliq huquqi; 5) soliq nazorati kiradi”⁷.

Iqtisodchilarning zamonaviy ishlarida “iqtisodiy mexanizm” tabiiy resurslar, intellektual mehnat, kompaniya obro‘si va boshqalar kabi omillarni o‘z ichiga olgan holda kengaytirilgan. Shunga ko‘ra, yangi qiymatni takror ishlab chiqarish obyektlarini boshqarishning iqtisodiy mexanizmining barcha qismlari mazmuni bir biriga bog‘liq holda qayta ko‘rib chiqish zaruriyati tug‘ilmoqda (1-rasm).



1-rasm. Iqtisodiy, fiskal va soliq mexanizmlari o‘zaro bog‘liqligi va tarkibi⁸

Bizning fikrimizcha, fiskal mexanizmni iqtisodiyotni raqamlashtirish sharoitiga moslashtirish zarur. Fiskal mexanizmni iqtisodiyotni raqamlashtirish shartlariga moslashtirish quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

raqamli texnologiyalarning paydo bo‘lishi va qo‘llanilishi munosabati bilan yangi mahsulotlar va operatsiyalarga soliq solish mexanizmi;

yuqori texnologiyali korxonalarini rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratish va axborot texnologiyalari sohasidagi faoliyatning jozibadorligini oshirishga qaratilgan soliq imtiyozlari mexanizmi;


⁷ Налоги и налогообложение [Текст] : учебник / [М. М. Шадурская, Е. А. Смородина, Т. В. Бакунова и др.] ; М-во науки и высш. образования Рос. Федерации, Урал. гос. экон. ун-т. — 2-е изд., перераб. и доп. — Екатеринбург : [Изд-во Урал. гос. экон. ун-та], 2019. — 216 с.

⁸ Tadqiqotlar asosida muallif tomonidan tayyorlangan.

tashkilotlarning birlamchi hisobotlarini va davlat va kommunal shartnomalarni bajarish uchun tasdiqlovchi hujjatlarni elektron shaklda taqdim etish va saqlash mexanizmi;

raqamli iqtisodiyotni moslashuvchan huquqiy tartibga *solish mexanizmi* – soliq nazorati mexanizmini avtomatlashtirish⁹.

Davlatning *soliq siyosati soliq mexanizmi* orqali amalga oshiriladi, demak, uni amalga oshirishning samaradorlik darajasi, eng avvalo, ushbu institut faoliyatini to‘g‘ri tashkil etish va uni to‘g‘ri huquqiy tartibga solishga bog‘liq. Soliq mexanizmi va budget jarayonlari o‘zaro bog‘liq hisoblanadi (2-rasm).



2-rasm. Soliq mexanizmi va budget jarayonlari o‘zaro bog‘liqligi¹⁰

Yuqorida bayon etilganlar fikr va mulohazalar asosida “soliq mexanizmi” tushunchasini iqtisodiy mohiyatini ilmiy jihatdan tadqiq etamiz. Fiskal siyosat ijrosini ta‘minlovchi asosiy instrument soliq mexanizmi hisoblanadi.

Bizning fikrimizcha, “soliq mexanizmi – bu o‘zaro soliq munosabatlari qoidalari va vositalari yordamida soliq va budget siyosatini samarali amalga oshirishni ta‘minlashga xizmat qiluvchi va bir-biriga ta‘sir etuvchi soliq elementlari yig‘indisidir”¹¹.

Soliq mexanizmi vositasida iqtisodiyotni tartibga solish doimo olimlar va mutaxassislar e‘tiborida bo‘lgan voqelikdir. Shu sababli yoqorida ta‘kidlanganidek soliq mexanizmi budget jarayoni bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri bog‘liqligi davlat budjetining daromadlar manbasini shakllantirishda va davlatning sohalar kesimida xarajatlarini taqsimlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

⁹ Концепция адаптации фискального механизма национальной экономики в условиях цифровизации / И. А. Карпунхо // Сборник научных работ серии «Государственное управление». Вып. 25 : Экономика и управление народным хозяйством. – Донецк : ГОУ ВПО «ДОНАУИГС», 2022. – С. 31-36.

¹⁰ Tadqiqotlar asosida muallif tomonidan tayyorlangan.

¹¹ Muallif tomonidan berilgan ta‘rif.

Soliq mexanizmi yordamida iqtisodiyotni tartibga solishning ma'lum bir qismini o'zida ifodalagan, deb o'ylaymiz. Chunki soliqlar orqali tartibga solish mexanizmi ko'p jihatdan soliqqa tortiladigan obyektlardan soliq to'lovchilar kesimi bo'yicha samarali foydalanish hamda soliq to'lovchilar va budjet daromadlariga soliq undiruvchilar manfaatdorligi uyg'unligini ta'minlashga qaratilgan bo'lishi lozim.

Fikrimizcha, har qanday holatda soliq to'lovchilar *moliyaviy faoliyatini soliqlar orqali tartibga solish mexanizmi*, soliq to'lovchilarining moliyaviy imkoniyatlaridan to'g'ri va oqilona foydalanib, soliq to'lovchilar faoliyatini optimallashtirish bilan bog'liq, yani - soliq stavkalari soliq to'lovchilarni ixtiyoriy va optimal soliq to'lovlarini o'z vaqtida, to'liq budjetga to'lashini rag'batlantiradigan normada belgilash; soliq solish tizimi soliq to'lovchilarni moliyaviy potentsiali, investitsiya imkoniyatini oshirish va firmani yashovchanlik darajasini uzaytirishga rag'batlantirish tizimiga asoslanishi zarur.

O'zbekistonda olib borilayotgan soliq siyosati natijasida soliq munosabatlari, soliq to'lovchilarni turli mulk shaklida faoliyat yuritish uchun zamin yaratishi, raqobat muhitini yaratish, moliyaviy natijalardan samarali foydalanish uchun asos yaratib bermoqda.

Aytish joizki, mamlakatimiz soliq siyosati nisbatan murakkab sharoitlarda amalga oshirilmoqda. Bunga asosiy sabab:

iqtisodning aksariyat tarmoqlarida yuqori resurs talab qiluvchi, raqobatbardosh va import tovarlar o'rnini bosuvchi mahsulotlar ishlab chiqaruvchi korxonalarini yetarli emasligi;

turli mulk shaklidagi korxonalarini xorij tajribalarini o'rgangan holda texnologik jihatdan qayta qurollanmaganligi;

soliqqa tortish mexanizmining jaxon tajribalari qatoriga ko'tarilmaganligi;

xususiy tadbirkorlar o'z huquqlariga sust e'tibor berayotganligi, ya'ni huquqiy madaniyati va soliq savodxonligini sayozligi;

soliq mexanizmini boshqarishda saqlanib qolinayotgan usullarning va moddiy manfaatdorlikning talab darajada bo'lmasligi;


korxonalarga investitsiya olib kirish loyihalarini yetarli darajada emasligi.

Keng ma'noda soliqlar orqali tartibga solish milliy iqtisodiyotga soliq potentsialidan samarali foydalanish maqsadida soliqlarning fiskal, tartibga soluvchi, rag'batlantiruvchi va nazorat funksiyalari orqali soliq munosabatlarini optimallashtirish maqsadida soliq mexanizmi vositasida iqtisodiyot va jamiyatni rivojlantirishning asosiy ijtimoiy-iqtisodiy ko'rsatkichlarida davlatning ta'sirini boshqarish jarayonini o'z ichiga oladi.

Tadqiqotlarimiz natijasida "Soliqlar orqali tartibga solish tizimi – davlat soliq siyosati, soliq mexanizmlari hamda soliq ma'muriyatchiligi tashkiliy-moliyaviy elementlari asosida soliq to'lovlar faoliyatini rag'batlantirish hamda budjet daromadlari barqarorligini ta'minlashga oid tartib-tamoyillar izchilligidir"¹², deya ta'rif ishlab chiqildi.

¹² Muallif tomonidan berilgan ta'rif.

Fikrimizcha, soliqlar orqali tartibga solish tizimiga berilgan ushbu ta’rifda soliq to’lovchi va budget daromadlarini shakllantirish mexanizmi barcha bo‘g‘inlarida sodir bo‘ladigan munosabatlar o‘z ifodasini topgan. Ta’rif soliqlarni hisoblash usullari, undirish tartiblari, to‘liq undirilishini baholash hamda mutanosib soliq-budget siyosatini ishlab chiqish bosqichlarini amalga oshirilishini nazarda tutadi. Tadqiqotimizda soliq munosabatlari tizimida soliq orqali tartibga solishning o‘rnini aniqlashga harakat qildik (3-rasm).



3-rasm. Soliq munosabatlari tizimida soliqlar orqali tartibga solishning o‘rni¹³

¹³ Tadqiqotlar asosida muallif tomonidan ishlab chiqilgan

Soliqqa tortish jarayoni davlat soliq siyosati konsepsiyasini shakllantirish, soliqqa tortishni huquqiy ta'minlash, soliq tizimini shakllantirish va soliqlarni undirish tartiblarini tashkil etish bo'yicha faoliyat ekanligini ko'rsatadi. Soliqqa tortish jarayonining asosiy funktsional elementi soliq ma'muriyatchiligi bo'lib, u rejalashtirish va prognozlash, soliqlarni yig'ish bo'yicha rejali topshiriqlarni bajarish va soliq nazorati bilan ifodalanadi.

Dissertatsiya ishining «**Soliq to'lovchilar faoliyatini soliq mexanizmi orqali tartibga solish amaliyoti tahlili**» deb nomlangan ikkinchi bobida xo'jalik yurituvchi subyektlar moliyaviy-xo'jalik faoliyatiga soliq siyosatining ta'siri tahlili, soliq to'lovchilar faoliyatini rag'batlantirish hamda soliq mexanizmlari soliq to'lovchilar faoliyatiga ta'sirini baholash yo'llari yoritilgan.

Xalqaro amaliyotda mamlakatlarda soliqlarning to'g'ri hisoblanishi va to'lanishi, soliq qonunchiligi buzilishining oldini olish hamda soliq to'lovchilar tomonidan o'z majburiyatlarini bajarmaslik oqibatida davlatga yetkazilgan zararining o'rnini qoplash soliq tekshiruvlarining pirovard natijasi hisoblanadi. Soliq tekshiruv daromadlarni yig'ishga ta'sir qiladi, chunki u soliq to'lovchilarning ixtiyoriy ravishda majburiyatlarini bajarishiga yordam beradi, bu esa daromadlarni oshiradi.

“Soliq xavfi - nazorat qiluvchi organlar tomonidan aniqlanadigan soliq qonunchiligini buzilishi natijasida moliyaviy va boshqa yo'qotishlarga olib keladigan noqulay vaziyatning yuzaga kelish ehtimolidir”.

Soliq siyosati va soliq nazoratini amalga oshirishda soliq xavfi darajasini aniqlash muhim ahamiyatga egaligini turli amaliy tahlillar ko'rsatmoqda (1-jadval).

1-jadval

2022-2024-yillarda o'tkazilgan soliq auditi natijalariga ko'ra soliq xizmati organlari tomonidan soliqlarni to'lamaslik xavfi yuqori bo'lgan tadbirkorlik faoliyatining sohalar kesimida tahlili, mlrd so'mda¹⁴

| Yillar | "Xavfni tahlil qilish" dasturida aniqlangan Soliq xavfi | Qurilish sohasida | Ishlab chiqarish sohasida | Savdo va umumiy ovqatlanish sohasida | Transport sohasida | Qishloq xo'jaligi sohasida | Xizmat ko'rsatish sohasida | Boshqa sohalar | Soliq auditorlarida aniqlandi | Soliq bazasi yashirilganligi aniqlangan | Jarima qo'llanilgan |
|------------------------------------|---|-------------------|---------------------------|--------------------------------------|--------------------|----------------------------|----------------------------|----------------|-------------------------------|---|---------------------|
| 2022-yil | 1181,5 | 1154,4 | 1036,1 | 874,7 | 253,3 | 57,7 | 43,3 | - | 3419,5 | 3245,0 | 649,0 |
| 2023-yil | 787,5 | 247,4 | 534,2 | 569,9 | 10,6 | 16,3 | 59,2 | 209,4 | 1647,0 | 1400,0 | 281,4 |
| 2024-yilda 8 oylik (yan-avg) | 3478,3 | 429,4 | 248,9 | 2854,1 | 43,3 | 115,8 | 330,8 | 106,0 | 4128,3 | 5767,1 | 1153,4 |

¹⁴ O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Soliq qo'mitasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan shakllantirilgan.

Soliq xavfini baholashning zamonaviy usullarini joriy qilish va iqtisodiy faoliyat sohasida xufiyona aylanma hamda nazorat qilinmaydigan daromadlar ko‘lamini qisqartirish bo‘yicha doimiy ravishda tahliliy amaliyotni amalga oshirish lozim. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 7-yanvardagi 1-sonli qarori bilan tasdiqlangan “Soliq xavfini boshqarish, soliq xavfi mavjud soliq to‘lovchilarni (soliq agentlarini) aniqlash va ularni soliq xavfi darajasi bo‘yicha toifalash tartibi to‘g‘risida” Nizomga muvofiq soliq xavfini aniqlash mezonlari tarkibi belgilangan. Lekin amaliyot natijalari tahlili mazkur belgilangan ko‘rsatkichlar yetarli emasligini ko‘rsatmoqda. Tahlillar natijasiga asosan soliq xavfini aniqlash mezonlari tarkibiga - sof foydaning sof tushumga (tovarlar va xizmatlar realizatsiya qilishda olingan daromad aksiz va qo‘shilgan qiymat solig‘isiz hisoblangan summa) nisbati sifatida aniqlanadigan rentabellik ko‘rsatkichi hamda sof foydaning xarajatlarga nisbati kabi rentabellik ko‘rsatkichini kiritishni taklif etamiz.

Tadqiqotlarimizda korxonaning moliyaviy-xo‘jalik faoliyatini o‘rganish jarayonida uning daromad va xarajatlarini ham ko‘rib tahlil qilish imkoniyati o‘rganildi (2-jadval).

2-jadval

“Nova Invest Profil” MCHJning 2020-2023-yildagi daromad va xarajatlari tahlili¹⁵, ming so‘m

| Ko‘rsatkichlar | 2020-yil | 2021-yil | 2022-yil | 2023-yil |
|---|--------------|--------------|--------------|-------------|
| | Summasi | Summasi | Summasi | Summasi |
| Jami daromad | 33 148 814,0 | 58 331 685,9 | 10 315 736,4 | 6 115 841,1 |
| Mahsulot (tovar, ish va xizmat) larni sotishdan sof tushum | 32 354 983,3 | 58 096 880,7 | 9 340 440,31 | 5 882 394,4 |
| Sof foydasi (zarari) | 1 172 967,9 | 1 030 401,7 | - 964 731,10 | 24 285,46 |
| Jami xarajat | 31 770 127,6 | 57 118 461,5 | 11 280 467,0 | 6 086 125,7 |
| <i>Shu jumladan quyidagi xarajatlar:</i> | | | | |
| Soliqqa oid xarajatlar | 934 956,4 | 288 342,6 | 125 259,4 | 139 769,7 |
| Soliqqa oid xarajatlarning jami daromadga nisbati (foizda) | 2,82 | 0,49 | 1,21 | 2,28 |
| Soliqqa oid xarajatlarning jami xarajatga nisbati (foizda) | 2,94 | 0,50 | 1,11 | 2,29 |
| Sof foydaning sof tushumga nisbati, rentabellik ko‘rsatkichi (foizda) | 3,62 | 1,77 | - | 0,41 |
| Sof foydaning xarajatlarga nisbati, rentabellik ko‘rsatkichi (foizda) | 3,7 | 1,8 | - | 0,39 |

¹⁵ “Nova Invest Profil” MCHJning 2020-2023 yil ma’lumotlari asosida muallif tomonidan shakllantirilgan.

Korxonada daromadlilikni oshirish va xarajatlarni kamaytirish bo'yicha choratadbirlarni amalga oshirishi, xarajatlarni kamaytirish yoki samaradorlikni oshirish imkoniyatlarini o'rganishi, moliyaviy maqsadlariga mos keladigan o'zining soliq strategiyasini ishlab chiqishi uchun soliq mutaxassislari bilan hamkorlik qilish lozim bo'ladi. Ya'ni bunda korxonada soliq maslahati xizmatidan foydalangan holatda o'zining budjet oldidagi majburiyatlarini to'g'ri va o'z vaqtida bajarilishi to'liq taminlanadi va ko'riladigan sof foydaning oshishiga ham erishiladi, deb hisoblaymiz.

Iqtisodiy subyektlar barqaror o'sishni ta'minlash va davlat moliyasiga ijobiy hissa qo'shish uchun strategik soliq rejalashtirish bilan shug'ullanishi, operatsion o'zgarishlarga moslashishi va rivojlanayotgan soliq qoidalariga rioya qilish kerakligi muhimdir.

Xalqaro amaliyotda fiskal siyosatni amalga oshirishda investitsiyalarni rag'batlantirishni inobatga olish muhim iqtisodiy ahamiyat kasb etadi. Jahon iqtisodiyotining doimiy rivojlanib borishida investitsion faoliyat muhim rol o'ynaydi. Hukumatlar investitsiyalarni jalb qiluvchi va qo'llab-quvvatlovchi muhitni shakllantirish orqali ish o'rinlari yaratish, texnologik innovatsiyalar va umumiy farovonlikka erishmoqdalar.

Soliq imtiyozlari muayyan xatti-harakatlar uchun moliyaviy imtiyozlar berish orqali investitsiya faoliyatini shakllantirish uchun mo'ljallangan tartibga solishning kuchli vositadir. Tadqiqotimizning asl mohiyatini ochish maqsadida soliq imtiyozlarining investitsiyalarni tartibga solishdagi ta'siri ko'rib chiqiladi (3-jadval).

3-jadval

O'zbekiston Respublikasida 2018-2023-yillarda soliq tushumlari va soliq imtiyozlarining YAIMga nisbati tahlili¹⁶, mlrd.so'm

| Ko'rsatkichlar | 2018-yil | 2019-yil | 2020-yil | 2021-yil | 2022-yil | 2023-yil |
|---|------------------|------------------|------------------|------------------|----------------|------------------|
| YAIM miqdori | 424 728,7 | 529 391,4 | 602 193,0 | 734 587,7 | 888 342 | 1 066 600 |
| Davlat budjeti daromadlari | 79 099,0 | 112 165,4 | 132 938,1 | 164 680,3 | 202 043 | 231 721,4 |
| Soliq tushumlari | 71 128,0 | 97 784,7 | 112 892,3 | 138 258,3 | 159 750 | 184 508,9 |
| Boshqa daromadlar | 7 971,0 | 14 380,7 | 20 045,8 | 26 423 | 42 293 | 47 212,5 |
| Soliq imtiyozlari | 22 707,5 | 29 136,0 | 31 065,6 | 43 479,3 | 72 963,7 | 69 777,9 |
| Davlat budjeti daromadlarining YAIMga nisbati, foizda | 18,6 | 21,2 | 22,1 | 22,4 | 22,7 | 21,7 |
| Soliq imtiyozlarining YAIMga nisbati, foizda | 5,3 | 5,5 | 5,1 | 5,9 | 8,2 | 6,5 |

¹⁶ Jadval O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va Moliya vazirligi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlangan.

Tadqiqotlarimiz natijalari 2018-2023-yillarda soliq imtiyozlarining YAIMdagi ulushi mos ravishda (5,3, 5,5, 5,1, 5,9, 8,2, 6,5) o'sish tendensiyasiga ega egaligini ko'rsatmoqda. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, hukumat iqtisodiyot hajmiga nisbatan ko'proq daromad yig'moqda, lekin iqtisodiy faollikni rag'batlantirish uchun nisbatan ko'proq soliq imtiyozlarini taqdim etmoqda.

Bugungi kunda O'zbekistonda eng ko'p qo'llaniladigan soliq imtiyozlari erkin iqtisodiy zonalar hissasiga to'g'ri kelmoqda va hukumat bu orqali investorlarga qulay muhit yaratishga harakat qilmoqda. Shubhasiz, to'rt yil davomida erkin iqtisodiy zonalarga berilgan soliq imtiyozlarining umumiy miqdori sezilarli darajada oshdi (4-jadval).

4-jadval

2020-2023-yillar davomida erkin iqtisodiy zonalarga taqdim qilingan soliq imtiyozlari tahlili, mln.so'm¹⁷

| EIZ nomi | 2020-yil | 2021-yil | 2022-yil | 2023-yil |
|--|------------------|------------------|------------------|------------------|
| “Angren” EIZ | 60 135,5 | 28 206,2 | 109 720,1 | 98 692,1 |
| “Andijon-farm” EIZ | 439,0 | 152,0 | 371,1 | 2 418,4 |
| “Bo'stonliq-farm” EIZ | 100,7 | 275,4 | 133,8 | 183,1 |
| “Buxoro-agro” EIZ | 2 918,0 | 11 406,4 | 19 824,0 | 24 475,3 |
| “G'ijduvon” EIZ | 4 181,2 | 3 246,7 | 14 531,5 | 6 733,5 |
| “Jizzax” EIZ | 9 600,4 | 14 718,0 | 16 818,2 | 134 031,7 |
| “Zomin-farm” EIZ | 1,6 | 39,0 | 198,0 | 254,2 |
| “Kosonsoy-farm” EIZ | 267,7 | 404,1 | 781,4 | 752,7 |
| “Qo'qon” EIZ | 8 710,8 | 11 314,8 | 49 363,6 | 43 161,2 |
| “Mashinasozlik va elektrotexnika maxsus sanoat xabi” MSZ | 0,0 | 0,0 | 85,3 | 304,5 |
| “Navoiy” EIZ | 48 057,2 | 68 438,6 | 64 842,5 | 60 292,3 |
| “Namangan” EIZ | 6 787,2 | 9 189,8 | 31 638,8 | 50 361,5 |
| “Nukus” EIZ | 12,0 | 256,2 | 1 065,9 | 721,5 |
| “Parkent-farm” EIZ | 147,1 | 608,3 | 731,1 | 807,6 |
| “Sirdaryo” EIZ | 17 980,9 | 25 982,9 | 38 865,0 | 26 096,6 |
| “Sirdaryo-farm” EIZ | 11 749,6 | 409,3 | 4 061,4 | 5 429,6 |
| “Termiz” EIZ | 35,9 | 117,8 | 521,6 | 592,5 |
| “Urgut” EIZ | 6 864,3 | 6 132,2 | 68 713,8 | 53 306,6 |
| “Xazorasp” EIZ | 1 591,1 | 1 507,0 | 7 462,4 | 4 409,2 |
| “Chorvoq” ETZ | 2 905,0 | 25 740,1 | 34 688,5 | 36 613,2 |
| Jami | 182 485,2 | 208 144,8 | 464 418,0 | 549 637,3 |

¹⁷ O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Soliq qo'mitasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan shakllantirilgan.

Ma'lumotlar erkin iqtisodiy zonalarga soliq imtiyozlarini taqdim etishning sezilarli o'sish sur'atlarga egaligidan dalolat beradi. O'tgan yillarga nisbatan 2023-yilda sezilarli o'sish erkin iqtisodiy zonalar doirasida ko'proq investitsiyalar jalb qilish yoki muayyan tarmoqlarni rivojlantirishga qaratilgan maqsadli iqtisodiy rag'batlantirish tashabbusini taklif qilishi mumkin. Erkin iqtisodiy zonalar uchun soliq imtiyozlarining umumiy miqdori taqdim etilgan umumiy soliq imtiyozlarining salmoqli qismini tashkil etadi (5-jadval).

Erkin iqtisodiy zonalarga yo'naltirilgan soliq imtiyozlarining salmoqli qismi mintaqaviy rivojlanish yoki sanoatning o'sishiga strategik yondashuvni taklif qiladi. O'zbekistonda 2020-2023-yillarda erkin iqtisodiy zonalar uchun soliq imtiyozlari to'g'risidagi ma'lumotlar tahlili ushbu zonalar doirasida iqtisodiy faoliyatni rag'batlantirish bo'yicha aniq va strategik sa'y-harakatlarni nazarda tutadi.

5-jadval

2020-2023-yillar davomida erkin iqtisodiy zonalarga taqdim qilingan soliq imtiyozlarining soliqlar kesimida tahlili, mln.so'm¹⁸

| Ko'rsatgich nomi | 2020-yil | 2021-yil | 2022-yil | 2023-yil |
|--|------------------|------------------|------------------|------------------|
| Foyda solig'i | 139 614,4 | 101 362,9 | 321 295,5 | 363 985,5 |
| Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq | 349,7 | 17,5 | 3 080,7 | 4 303,5 |
| Mol-mulk solig'i | 21 141,1 | 28 175,8 | 64 722,3 | 108 671,1 |
| Yer solig'i | 21 379,9 | 77 996,9 | 75 625,6 | 101 557,3 |
| Jami | 182 485,1 | 207 553,1 | 464 724,1 | 578 517,4 |


Ma'lumotlarga e'tibor qiladigan bo'lsak, asosiy soliq imtiyozlari foyda solig'i, suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq, mol-mulk solig'i va yer solig'i hissasiga to'g'ri kelganligini ko'rishimiz mumkin. Kuzatilgan tebranishlar dinamik va moslashuvchan budjet siyosatidan dalolat beradi. Tahlillarimiz natijalari mutaxassislarning aniq iqtisodiy faoliyatni rag'batlantirish uchun soliq imtiyozlarini o'zgartirib, iqtisodiy sharoitlarga moslashtirish zarurligi to'g'risidagi fikrlarini tasdiqladi.

O'zbekiston erkin iqtisodiy zonalarida soliq imtiyozlari dinamik bo'lib, muayyan iqtisodiy faoliyatni rag'batlantirish siyosatidagi strategik o'zgarishlarni aks ettiradi. Ushbu rag'batlarning ta'sirini kuzatishda davom etishlari va ushbu zonalarda barqaror iqtisodiy o'sish va rivojlanishni ta'minlash uchun siyosatni mos ravishda o'zgartirishlari kerak deb hisoblaymiz.

